

**YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNI GENDER TENGLIGI
MASALASIGA IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV
A SOCIAL APPROACH TO GENDER EQUALITY IN
UZBEKISTAN IN UZBEKISTAN**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ ГЕНДЕРНОГО
РАВЕНСТВА ЖЕНЩИН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

Norimonova Gulmira

*Andijon davlat pedagogika instituti
Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya: Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston jamiyatida ayollarni gender tengligi masalasi dolzarb va muhim ijtimoiy masalalardan biriga aylanib ulgurgani sir emas. Gender tengligi faqat ayollar uchun emas, balki butun bir jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun zaruriy omil hisoblanadi. Ayollarning huquqlari va imkoniyatlari teng bo‘lishi, jamiyatda adolatli va demokratik muhitni yaratishga yordam beradi, albatta. Ushbu maqolada, O‘zbekiston ayollarining gender tengligi masalasiga ijtimoiy va falsafiy yondashuvlar orqali yoritish bilan birga ushbu masalalarning jamiyatdagi roli va rivojlanishidagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Annotation: Today, the issue of women gender equality in the new Uzbek society has become one of the most important and important social issues. Gender equality is a necessary factor for the stability and development of a whole society, not for women. Of course, the rights and capabilities of women will help create a just and democratic environment in society, of course. In this article,, along with the lighting of the women of Uzbekistan through social and philosophical approaches to the issue of gender equality, we will consider the importance of these issues in society.

Аннотация: Сегодня проблема женского гендерного равенства в новом Узбекском обществе стала одной из самых важных и важных социальных проблем. Гендерное равенство является необходимым фактором для стабильности и развития целого всего общества, а не для женщин. Конечно, права и возможности женщин помогут создать справедливую и демократическую среду в обществе, конечно. В этой статье, наряду с освещением женщин Узбекистана с помощью социальных и философских подходов к вопросу о гендерном равенстве, мы рассмотрим важность этих вопросов в обществе.

Kalit so’zlar: Gender, Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy, huquqiy, oila, ayollar, falsafiy, jamiyat, stereotip.

Keywords: Gender, New Uzbekistan, Social, Legal, Family, Women, Philosophical, Society, Stereotype.

Ключевые слова: пол, новый Узбекистан, Социальный, Юридический, Семья, Женщины, Философский, Общество, Стереотип.

Kirish: Yangi O‘zbekistonning rivojlanish yo’lida gender tengligi masalasi muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda. Hozirgi kunda jamiyatda ayollarni teng huquqli va faol fuqaro sifatida tan olish, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda faolligini oshirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib ulgurgan. Ayollarni gender tengligi masalasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazaridan ham keng tahlil qilinishi kerak. Har bir jamiyatda gender tengligi nafaqat adolatni ta’minlash, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston davlatining gender tengligi bo'yicha amalga oshirayotgan islohotlari, mamlakatda ayollarning jamiyatdagi faolligini kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy va siyosiy yangiliklarni o‘zida aks ettiradi. Bu kabi islohotlar ayollarning o‘z-o‘zini anglash, o‘z huquqlarini himoya qilish va zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Mazkur maqolada, Yangi O‘zbekistonda ayollarning gender tengligi masalasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan qanday baholanishi, jamiyatda bu kabi masalalar qanday o‘zgaryotganligi va bu o‘zgarishlarning keljakdagi rivojlanishiga qanday ta’sir etishi yoritiladi.

Asosiy qism: Yangi O‘zbekistonning gender tengligi masalasi ijtimoiy-falsafiy yondashuvida ko’plab omillarni o‘z ichiga oladi. Gender tengligi jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonning gender tengligi bo'yicha amalga oshirgan islohotlari va qarorlarining falsafiy asoslari, ayniqsa, zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli ko‘plab maqsadlarni ko‘zlaydi. Barchamizga ma’lumki, 2019-yil 2-sentyabrda „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“ O‘zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy kafolat sifatida ma’qullandi. Ushbu qonunnig 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo’lib, gender- xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayotida va faoliyatining barcha jahbalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim va ilm-fan sohalaridagi ijtimoiy jihatlari ko‘rsatilgan. Hozirgi kunda rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta’milanishida deb o‘ylayman.

Qadimgi yunon olimlari Suqrot, Arastu, Aflatunlar eng yahshi davlat sifatida jamiyatda tenglik vaadolat hukm surgan shaharlarni nazarda tutishgan. Sharq olimi Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni

fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan. Shuningdek, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan “Fuqarolik va ayol huquqi Deklaratsiyasi”da ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o‘z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi ta’kidiklangan. BMT Bosh Assambleysi tomonidan 1948-yil 10-dekabrdan qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e’tirof etilgan bo‘lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak ” deb ta’rif berilgan. BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida” Xalqaro Paktning 3-moddasida aytishicha, “Mazkur paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktda ko‘rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta’minalash majburiyatini oladi”. Yana bir huquqiy asosi kafolatlangan qonun hujjati bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Xotinqizlar va erkaklar tengdirilar”, deb belgilanganligidir. Mening fikrimcha, Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Gender tengligi ijtimoiy tizimda erkaklar va ayollarning huquqlari, imkoniyatlari va majburiyatları tengligini ta’minalashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan, gender tengligi ko‘pinchaadolat, inson huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishi bilan bog‘lanadi. O‘zbekistonda gender tengligi siyosati-patriarxal tizimning an’anaviy qadriyatlarga qarshi kurashish orqali ayollarga nisbatan stereotiplarga asoslangan kamshitishlarni kamaytirishga qaratilgan. Ayollarni ijtimoiy hayotga kengroq jalb qilish, ularning iqtisodiy faoliyatda, siysatda va boshqa sohalarda ishtirokini ta’minalash-bu nafaqat gender tengligi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minalashga xizmat qiladi, albatta. O‘zbekistonda 2016-yilda gender tengligini ta’minalash bo‘yicha davlat dasturi qabul qilinib, ayollarning siyosoy va iqtisodiy faoliyatda ishtirokini oshirishga katta e’tibor qaratildi. Ayollarni ta’lim olish va sog‘liqni saqlash kabi asosiy sohalarda imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ishbilarmonlikda va tadbirkorlikda faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash orqaligina jamiyatning umumiylar faravonligini oshirish mumkin. Ayniqsa, o‘zbek ayollari tarixan kuchli oilaviy va ijtimoiy rolga ega bo‘lishgan bo‘lsalarda, ularni yanada yuksaltirish uchun ko‘proq e’tibor berish kerak. Yangi O‘zbekistonning gender tengligi siyosatida din va an’anaviy qadriyatlarning roli ham muhimdir. Din va an’analar ko‘pincha ayollarga nisbatan ijtimoiy xulq-atvorni belgilashda muhim. Fikrimcha, ayollar ishtirokini kengaytirish orqali, din bilan uyg‘unlashgan holda gender tengligini ta’minalash, ijtimoiy adolatni va barqarorlikni ta’minalash lozim hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa qilganda, gender tengligi nafaqat ayollar huquqlari va imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan masala, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Ayollarni teng huquqlarga ega

bo‘lishi jamiyatning barcga sohalarida rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonda yanada barqaror, adolatli va faravon jamiyatni shahllantirishga hissa qo‘sadi. Mening fikrimcha, Yangi O‘zbekistonda gender tengligi masalasi fsaqat ayollarning o‘ziga xo huquqiy tenglini ta’minlash emas,balki butun jamiyatimizning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni.2019-yil, 2-sentabr.
- 3.Jamoliddinova O., Egamberdiyeva T., Solixxo‘jayevad.Oliy ta’lim tizimida gender yondashuv. Uslubiy qo‘llanma-Toshkent,2022.-79 b.
- 4.<https://yuz.uz>;
- 5.<https://davlat.uz>;